O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI BUXORO VILOYATI OLOT TUMANI HOKIMINING QARORI

Buxoro viloyati, Olot tumani, Olot ko’chasi, 73-uy. Tel: (365) 34-22-114, faks: (365) 34-22-539

2022 - yil 29 - sentabr 326-2-31-Q/22 Olot tuman hokimligi

Olot tumanidagi qabristonlarda dafn etish xizmatlarini ko‘rsatish bo‘yicha tariflar miqdorini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining “Dafn etish va dafn ishi to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2011-yil 4-apreldagi “Dafn etish va dafn ishi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunini amalga oshirish chora-tadbirlari haqida”gi 101-son qarori bilan tasdiqlangan nizomga muvofiq hamda O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6-25-moddasiga asosan,

QAROR QILAMAN:

1. Olot tumandagi qabristonlarda dafn etish xizmatlarini ko‘rsatish bo‘yicha ta’riflar miqdori ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Tuman hokimi o‘rinbosari SH.Hamroyev, tuman obodonlashtirish boshqarmasi (U.Qulliev)ga:

Fuqarolarning o‘zini-o‘zi boshqarish organlari bilan hamkorlikda qabristonlarni zarur darajada saqlash va obodonlashtirish hamda hasharlar, xotirlash kunlari va boshqa tadbirlarni tashkil etish;

Sanitariya qoidalari va me’yorlariga qat'iyan rioya etgan holda qabristonlarni ochish va yopishda qonuniylikni ta’minlasin, qabristonlar tashkil etish uchun yer uchastkasi ajratishni yer to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshirish topshirilsin.

3. Tuman obodonlashtirish boshqarmasi boshlig'i U.Qullievga:

Xizmatlar uchun qat’iyan belgilangan ta’riflar bo‘yicha hisob-kitob qilgan holda fuqarolarning qabristonda ko‘rsatiladigan xizmatlarga doir buyurtmalarini o‘z

vaqtida va sifatli bajarilishini;

Qabristonlarda byustlar, haykaltaroshlik yodgorliklari yoki alohida arxitektura shakliga ega bo‘lgan inshootlarni o‘rnatish, obyektlarni saqlash va ulardan foydalanish qoidalariga rioya etilishini ta’minlasin.

4. Qaror matni hokimlikning rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin hamda “Olot hayoti” gazetasi bosh tahririyati (H.Bozorov) ushbu qaror matnini “Olot hayoti” gazetasida chop etilishini ta’minlasin.

5. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish tuman hokimi o‘rinbosari Sh.Hamroev zimmasiga yuklatilsin

Туман ҳокими **Н.Нематова**

Olot tuman hokimining
2022 yil 29 sentabrdagi
326-2-31-Q/22-son qaroriga
1-ilova

Olot tumanidagi qabristonlarda dafn etish xizmatlarini ko‘rsatish bo‘yicha

TARIFLAR MIQDORI

T\r	Xizmatturi	O‘lchov birligi	Bazaviy hisoblash Miqdoriga nisbatan (foiz hisobida)
1	Qabr uchun (diniy mansubligidan qatiy nazar katta o‘lchamda)	Bir o‘ringa	Bepul
2	Tegishli diniy konfessiya qabristonida vafot etgan yaqinlari va qarindoshlarini dafn etish uchun uchastka olish	Bir o‘ringa	Bepul
3	Qabr uchun (diniy mansubligidan qat’iy nazar kichik o‘lchamda)	Bir o‘ringa	Bepul
4	Qabr uchun (diniy mansubligidan qat’iy nazar 3 yoshgacha	Bir o‘ringa	Bepul
5	Marosim xizmatlaridan foydalanish (Mayitni yuvish, kafanlash, qabr qazish)	Har bir xizmatlar uchun	30 %
6	Qabrga va qabr usti yodgorliklariga qarash uchun qabriston anjomlaridan foydalanish	1 o`rin kuniga	Bepul

Izoh: Olot tumanida qabristonlarda dafn etish xizmatlarini ko‘rsatish bo‘yicha ta’riflar miqdori bazaviy hisoblash miqdori ortishiga mutanosib ravishda dafn etish xizmatlarini ko‘rsatish bo‘yicha ta’riflar miqdori ham ortadi.